

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
PREVENTIV TIBBIYOT ASOSLARI KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
ADTI rektori **A.M. Raximov**
“ 2025 yil



“GIGIYENA. XARBIY GIGIYENA. TIBBIY EKOLOGIYA”
MODULI ISHCHI O`QUV DASTURI

Bilim sohasi: 900000 – Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 910000 - Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishlari: 60910200 - Davolash ishi

Andijon - 2025 yil

Fan/modul kodi GXGTE1406		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	Kreditlar 2-4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Xaftadagi dars soatlari 2-4	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Gigiyena, xarbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya	90		90	180
2	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - Gigiyena, xarbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya fanini bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning ilk bosqichi hisoblanadi va talabalar tomonidan atrof muhitda bo'layotgan muammolarni aniq tasavvur qilish, inson organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va kasalliklarni oldini olish profilaktik chora- tadbirlarni ishlab chiqish moduli bo'lib hisoblanadi.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Gigiyena, xarbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya modulining maqsadi va vazifalarini, ularning UASH ish faoliyatida ahamiyatini; - gigiyenaning asoslari bilan tanishtirish; - gigiyenaning har bir bo'limini asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish; - inson organizmi bilan atrof muhit o'rtasidagi bog'liqligining asoslari; - gigienik reglamentlashtirish prinsiplari; - talabaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga etkazish; - turli shakldagi patologiyalarning kelib chiqishida tashqi muhitdagi omillarning tutgan o'rni, atrof muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlar va kasalliklarning birlamchi, ikkilamchi profilaktikasi bilan tanishtirish; - atrof muhit jumladan, ekologik omillarining holatini tekshirish, uni tahlil qilish va olingan natijalarni gigiyena nuqtai-nazardan baholash (ovqatlanish gigiyenasi, davolash-profilaktika muassasalari gigiyenasi, mehnat gigiyenasi, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, radiatsion sohasida) ni o'rgatishdan iborat. <p>II. Asosiy nazariy qism (ma`ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>3 semestr:</p> <p>1-mavzu. Zamonaviy gigiyena va tibbiy ekologiya, ularning tibbiyotdagi o'rni. 2 soat.</p> <p>Gigiyenaning predmeti va vazifalari. Ekologiya va tibbiy ekologiya haqida</p>				

tushuncha. Tibbiy ta'lim tizimida gigiyena va tibbiy ekologiya fanining o'rni. "Aholi salomatligi" tushunchasi, aholi salomatligi ko'rsatkichlarining yashash va turmush sharoitlariga bog'liqligi. Atrof muhit omillari haqida tushuncha. Gigiyenada qo'llanadigan tekshirish usullari. Gigienik me'yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslari. Davolash sohasidagi vrach faoliyatida gigiyenaning ahamiyati. O'zbekiston respublikasi aholisining kasallanish tuzilmasida etakchi o'rinni yuqumli bo'lmagan kasalliklar egallaganligi. O'zRda zamonaviy kasallanish tuzilmasining tavsifi. SHu bilan bog'liq holda yuqumli bo'lmagan etakchi shakldagi patologiyalarning profilaktikasi juda dolzarbli. Kasalliklarning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi haqida tushunchalarning tavsifi.

2- mavzu: Davolash-profilaktika muassasalari gigiyenasining umumiy asoslari. 2 soat.

Davolash-profilaktika muassasalari qurilishining gigienik asoslari (ambulatoriya-poliklinika muassasalari). O'zRda DPMning moddiy-texnik bazasining holati va uni yaxshilash bo'yicha bugungi kundagi vazifalar. DPMLar qurilishining zamonaviy muammolari. Davolovchi-himoyalovchi tartib haqida tushuncha, uning davolash-profilaktika muassasalarini obodonlashtirilganligi bilan bog'liqligi. SanQvaM 0292-11 bo'yicha O'zRda DPMni rejalashtirish va loyihalashtirish reglamentlari va gigienik asoslari. DPMLarni rejalashtirishga bo'lgan umumiy gigienik talablar. DPMLarni kommunal nuqtai-nazardan jihozlanishi (suv ta'minoti, kanalizatsiya, yoritilishi, shamollatilishi, chiqindilardan tozalash). Bemorlarni ovqatlantirishni tashkil kilish. Kasalxona ichi infeksiyalari va ularni oldini olish tadbirlari. Kasalxona ichi infeksiyasi haqida tushuncha va uni oldini olish choralari. Ixtisoslashgan markazlarga (jarrohlik, yuqumli kasalliklar va tug'ruqxona) bo'lgan asosiy gigienik talablar.

3-mavzu: Suv salomatlik omili. 2 soat. Suvning fiziologik, gigienik va epidemiologik ahamiyati. O'zRsi aholisini suv bilan ta'minlashdagi eng muhim muammolar, mahalliy va markazlashgan suv ta'minoti haqida tushuncha. Respublika hududidagi suv manbalariga gigienik ta'riflar. Suv ta'minoti manbalariga bo'lgan umumiy gigienik talablar. Suv manbalarining sanitar himoya

mintaqalarini tashkil qilish. Sanitar himoya zonasi (SHZ) haqida tushuncha. O‘zRda suv iste‘moli me‘yorlari. Davlat Standarti haqida tushuncha. DavSt ga muvofiq ichimlik suvining sifatiga bo‘lgan talablar. Ichimlik suvining sifatini yaxshilash usullariga umumiy ta‘rif. Ichimlik suvining sifatini yaxshilashdagi zamonaviy usullar haqida tushuncha, suvni tiniqlashtirish va zararsizlantirish (usullari, vositalari, ishlov berish tartibi va uning gigienik nazorati).

4-семесть

1-mavzu: Ovqatlanish va salomatlik. 2 soat.

Ovqatlanishning salomatlik omili ekanligi. Ovqatlanishning ijtimoiy-gigienik muammo ekanligi. Aholi salomatligi uchun ovqatlanishning ahamiyati. Oqilona ovqatlanish tushunchasi va unga bo‘lgan gigienik talablar, ovqatlanishning fiziologik me‘yorlari. Asosiy oziq moddalarning manbalari va iste‘molning gigienik me‘yorlari. Alimentar kasalliklar haqida tushuncha, ularning tasnifi. Aholi ovqatlanishida ekologik muammolar. Ovqatdan zaharlanishlar va ularning tasnifi. Ovqatdan zaharlanishning muhim shakllarini kelib chiqishini oldini olish. Bemorlarni parhez ovqatlantirishning gigienik asoslari. O‘zbekiston Respublikasi aholisining hozirgi zamondagi ovqatlanish holatining tavsifi. Alimentar-bog‘liq kasalliklar va bizning respublikamizda dolzarb holatlar. Alimentar tanqislikning klinik ko‘rinishlari. Aholining ovqatlanishini biologik faol moddalar bilan maqsadli boyitish masalalari. Zamonaviy ekologik sharoitlarda ovqatlanishni ratsionallashtirish imkoniyati. Aholining ovqatlanishini ratsionallashtirishda UASH vazifalari.

2-mavzu: Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasining umumiy asoslari. O‘zbekiston aholisi bolalar kontingentining salomatlik ko‘rsatkichlari. Aholi turmush sharoitining bolalarning salomatlik holatini belgilovchi muhim omil ekanligi. Uyushgan bolalar muassasalariga qo‘yiladigan gigienik talablar. Bolalarning jismoniy rivojlanishi, ularni tarbiyalash va o‘qitish sharoitlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqishning asosi ekanligi. Akseleratsiya, uning gigienik ahamiyati, maktabga etuklik tushunchasi. Bolalar va o‘smirlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishning gigienik asoslari. Bolalar muassasalarini qurish va jihozlashga bo‘lgan gigienik talablar. **Bolalar va o'smirlarning normal**

rivojlanishi va sog'lig'ining yuqori darajasini ta'minlashning gigienik tamoyillarini tushuntirish va baholash.

3-mavzu: Mehnat gigiyenasi. 2 soat. Mehnat gigiyenasining umumiy asoslari va mehnatni muhofaza qilish. Texnik taraqqiyotning mehnat sharoitlari o'zgarishidagi gigienik ahamiyati, ekologik muammolari. Mehnat gigiyenasi tushunchasi, mehnat gigiyenasi sohasidagi zamonaviy muammolar. Ishlab chiqarishga oid zararlar haqida tushuncha, ularning tasniflari. Kasb kasalliklari, O'zR uchun bu muammoning dolzarbligi. Sanoat korxonalarida ishchi va xizmatchilariga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishning asoslari. Ruhiy-fiziologik va biologik omillarga gigienik ta'rif, ularning ishchilar organizmiga zararli ta'sirini oldini olish tadbirlari. **Ishlab chiqarish muhitidagi biologik omillarning gigienik ahamiyati, kasbga oid infeksiyalar haqida tushuncha, ularni oldini olish tadbirlari. kasbiy patologiyalar, ishlab chiqarish jarohatlarining oldini olish va ishlab chiqarishda umumiy kasallanishni kamaytirish choralarini ishlab chiqish.**

4-mavzu: Ishlab chiqarish muhitining fizik va kimyoviy omillari haqida tushuncha. 2 soat .

Ishlab chiqarish muhitidagi fizikaviy omillarga umumiy ta'rif: nomuvofiq mikroiklim, shovqin, tebranish (fizikaviy ta'rif, ishchilar organizmiga zararli ta'siri, zararli ta'sirini oldini olish tadbirlari). Sanoat changlari, changlarning tasniflari, changga doir patologiyalar haqida tushuncha va ularni oldini olish tadbirlari. Ishlab chiqarish muhitidagi kimyoviy omillar va davolovchi profilaktik ovqatlanish haqida tushuncha. Ishlab chiqarish muhitidagi kimyoviy omillar haqida tushuncha, ularning gigienik ahamiyati: organizmga kirish yo'llari, mumkin bo'lgan ta'sir etish tabiati, ularning zaharliligi bo'yicha tasnifi. O'tkir va surunkali kasbiy zaharlanishlar haqida tushuncha, ularni oldini olish tadbirlari. Ishlab chiqarishga doir zararli omillarning maxsus ta'siri: allergen, kanserogen, mutagen, teratogen, embriotoksik; oldini olish tadbirlari. Zararli kasblarda ishlovchi ishchilarga davolovchi-profilaktik ovqatlar berish va ularga gigienik ta'rif. O'zR qishloq xo'jaligida mehnat gigiyenasi asoslari. O'zbekiston Respublikasi sharoitida qishloq xo'jaligidagi mehnatning zamonaviy

muammolari, o'ziga xos xususiyatlari, qishloq xo'jaligidagi ishchi va xizmatchilar organizmiga ta'sir ko'rsatuvchi nomuvofiq omillarga umumiy ta'rif, ishchilarni sog'lomlashtirishga doir tadbirlar. Mineral o'g'itlarni qo'llash gigiyenasi. Pestitsidlar haqida tushuncha, ularning tasniflari. Ularni qo'llaganda nomuvofiq ta'sir etish ehtimoli, oldini olish tadbirlari.

5 - mavzu: Xarbiy gigiyena. O'zR Qurolli Kuchlaridagi Sanitariya nazorati. Qo'shinlarni ovqatlantirish gigiyenasi. Xarbiy xizmatchilarning suv ta'minoti. Ayrim qo'shin turlaridagi mehnat gigiyenasi. Xarbiy gigiyena haqida tushuncha. Uning rivojlanish tarixi. Qurolli kuchlardagi sanitariya nazorati va gigiyenik ta'minotlar haqida tushincha. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi Sanitariya nazorati kuchlari va vositalari. Xarbiy qo'shinlarni joylashtirish, yuvintirish-kiyintirish bo'yicha xizmat gigiyenasi. Xarbiy xizmatchilarni ovqatlantirishni ahamiyati va kunlik ovqat mahsulotlarining me'yori. Tinchlik davrida Xarbiy xizmatchilarning ovqatlanishini tashkil qilish va uning sanitar nazorati. Xarbiy harakatlar davrida ovqatlanishni tashkil qilish va uning sanitar nazoratini amalga oshirish. Yangi ovqat mahsulotlari. Qo'shinlarni sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashning gigiyenik ahamiyati. Tinchlik davrda qo'shinlarning suv ta'minoti va uning sanitar nazoratini tashkil qilishning asoslari. Xarbiy dala sharoitida suv ta'minoti va uning sanitar nazoratini tashkil qilish. Xarbiy dala sharoitida tibbiy xizmat xodimining asosiy vazifalari. Dala sharoitida ichimlik sifatini yaxshilash usullari. Xarbiy mehnat gigiyenasi haqida tushuncha. Ayrim qo'shin turlaridagi mehnatning o'ziga xos xususiyatlari. Tank qo'shinlari mehnat gigiyenasi. Raketa qo'shinlari mehnat gigiyenasi. Radiolokatsion stansiyalardagi Xarbiy xizmatchilarning mehnat gigiyenasi

6 - mavzu: Tuproq gigiyenasi. 2 soat. Tibbiy ekologiyaning zamonaviy muammolari. Tuproqning atrof muhit omili ekanligi, uning gigiyenik ta'rifi. Tuproqning biogeokimyoviy ahamiyati, biogeokimyoviy hududlar va viloyatlar haqida tushuncha, O'zR xududi biogeokimyoviy foni va asosiy endemik kasalliklar (endemik bo'qoq va yodga doir tanqislikning umumiy muammolari, karies, flyuoroz), bu kasalliklarni oldini olish tadbirlari. Tibbiy ekologiya haqida

tushuncha. Insonlarning hozirgi zamondagi yashash muhitini shakllanishi uchun ilmiy-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning ahamiyati. Atrof muhitning ifloslanishi ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy negativ oqibati ekanligi. Ifloslanish turlari va ularning shahar hamda qishloq aholi yashash joylaridagi asosiy manbalari. Zararli omillarning biosferada bo'lishi va oqibatining umumiy qonuniyatlari, biologik zanjirlar haqida tushuncha. Zamonaviy shaharlarda gigienik va ekologik muammolar. Tibbiy ekologiya va zamonaviy muammolari. Ekologo-gigienik monitoring haqida tushuncha, uning vazifalari. Atrof muhitni ifloslanish omillarining tavsifi. Ksenobiotiklar va ularning atrof muhit uchun ahamiyati. O'zbekiston respublikasi hududlarida ekologik vaziyatni tavsifi. Ekologik xavfli mintaqalar va ekologik zo'riqqan zonalar. "Kam jadallikdagi omillar" tushunchasi va ahamiyati. Ekologik vaziyat va ekopatologiyalar. Tibbiy ekologiya sohasida asosiy yo'nalishlar. Atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar.

III. Amaliy mashg'ulotlar.

Modul bo'yicha mashg'ulotlar nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda quyidagi mavzular bo'yicha o'tkaziladi.

3-semestr

T/r	Mashg'ulot nomi	Soat
1	Kasalxona xonalari mikroiklimining gigienik ahamiyati (harorat, namlik, havo harakat tezligi, bosim).	
2	Kasalxona xonalari havosining antropogen ifloslanishi haqida tushuncha	
3	Kasalxona xonalari yoritilganligining ahamiyati.	
4	DPMlarda INMlardan foydalanilganda dozimetrik va radiometrik nazorat o'tkazishning asoslari	
5	O'zR aholisining eng muhim yuqumli bo'lmagan kasalliklari profilaktikasining gigienik jihatlari. Kasalxona ichi infeksiyasi va uni oldini olish (SanQVM 0342-17).	
6	Loyiha materiallari bo'yicha davolash-profilaktika muassasalarini gigienik baholash. (Palata seksiya bo'yicha dalolatnoma tuzish)	
7	DPMda ratsional suv ta'minotining ahamiyati. Ichimlik suvining sifatini yaxshilashning zamonaviy usullari haqida	

- tushuncha
- 8 Ratsional ovqatlanish. Oziq-ovqatning ozuqaviy yukining inson salomatligidagi roli
 - 9 Bemorlarning ovqatlanishini tashkil qilish va uning gigienik nazorati
 - 10 Organizmning vitaminlar bilan ta'minlanganligini o'rganish va baholash
 - 11 Ovqat mahsulotlarining sifatini gigienik baholash
 - 12 Ovqatdan zaharlanishlar va ularni oldini olish choralari

Jami

4- semester

T/r	Mashg'ulot nomi
1	Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini tekshirish usullari
2	Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarlarning jismoniy rivojlanishini baholash (dalolatnoma tuzish)
3	Maktablarni loyihalashga bo'lgan gigienik talablar
4	Maktablarni jixozlashga va o'quv qurollariga bo'lgan gigienik talablar. Maktabda o'qitish va tarbiyalash sharoitlarini optimallashtirish asoslari.
5	Umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini tahlil qilish Dalolatnoma tuzish
6	Jismoniy tarbiya darsiga bolgan gigienik talablar.
7	Korxonalarda shovqinni tekshirish va baholash
8	Korxonalarda tebranishli vaziyatlarni tekshirish va baholash
9	CHangga oid patologiyalar xaqida tushuncha
10	Kimyoviy omillarni umumzaxarli va maxsus ta'siri haqida tushuncha
11	Sanoat korxonalarida ishchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi
12	Qishloq ho'jaligida mehnat gigiyenasi. Pestitsidlar xaqida tushuncha
13	Qo'shinlarni kazarma va dala sharoitlarida joylashtirilganda ularning ovqatlantirilishining sanitariya nazorati. (Mashg'ulot xarbiy kismda o'tkaziladi)
14	Xarbiy dala sharoitida xarbiylarni ichimlik suvi bilan ta'minlash. Dala sharoitida suvning sifatini yaxshilash va uni baholash usullari.
15	Harbiy mehnat sharoitlarining sanitariya nazorati. Ommaviy kirgin kurollari ishlatilganda suv va ozik-ovqatni gigienik ekspertiza qilish. Yakuniy nazorat.

Jami

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan

auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

IV Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

3-semestr:

1. Gigiyenaning rivojlanish tarixi. O'zRda gigiyena modulining shakllanishi va rivojlanishi - 3 soat.
2. Kasalxona xonalarining mikroiklimni o'rganish va baholash - 3 soat.
3. Kasalxona xonalari havosining antropogen kimyoviy ifloslanganligini tekshirish va baholash (karbonat angdrid gazi misolida) - 3 soat.
4. Kasalxona xonalarining tabiiy va sun'iy yoritilganlik holatini baholas - 3 soat.
5. Sanitar-dozimetrik nazorat haqida tushuncha - 3 soat.
6. Kasalxona ichi infeksiyalarini kelib chiqishi uchun havoning bakterial ifloslanganligini ahamiyati - 3 soat.
7. Loyiha materiallari bo'yicha davolash-profilaktika muassasalarini baholash - 3 soat.
8. Ichimlik suvi sifatini yaxshilashning asosiy usullar
9. SHaxsiy ovqatlanishning adekvatligini o'rganish va baholash
10. Bemorlarning ovqatlanishini tashkil qilish va sifatini nazorat qilish
11. Ovqatdan zaharlanishlar va ularning profilaktikasi

4-semestr:

1. O'quvchilarni gigienik tarbiyalash
2. Ruhiy-fiziologik omillarga gigienik ta'rif, organizmga ularning zararli ta'sirini oldini olish tadbirlari
3. Bolalar muassasalarini loyihalashtirish qurish va jihozlashga bo'lgan gigienik talablar

4. Kiyim boshlar va oyoq kiyimlari gigiyenasi
5. Tuproq hosil qiluvchi omillar
6. Korxonalarda shovqinni tekshirish va baholash
7. Korxonalarda tebranishli vaziyatlarni tekshirish va baholash
8. CHangga oid patologiyalar xaqida tushuncha
9. Kimyoviy omillarni umumzaxarli va maxsus ta'siri haqida tushuncha
10. Qishloq ho'jaligida mehnat gigiyenasi
11. Pestitsidlar xaqida tushuncha
12. Qo'shnlarni kazarma va dala sharoitlarida joylashtirilganda ularning ovqatlantirilishining sanitariya nazorati.
13. Dala sharoitida suvning sifatini yaxshilash va uni baholash usullari.
14. Ommaviy kirgin kurollari ishlatilganda suv va ozik-ovqatni gigienik ekspertiza qilish.

Gigiyena, harbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- vaziyatli va muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real vaziyatlar va vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;

prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

3 V. Ta'lim natijalari, kasbiy kompetensiyalari.

Talaba semestr yakunida:

- davolash sohasidagi vrachning turli kasalliklarni oldini olishdagi vazifalarini;
- atrof muhit bilan odam organizmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, atrof muhit

omillarining organizmga ta'sir etish xususiyatlarini, ijtimoiy gigiyenik omillari

- eng ko'p tarqalgan kasallik shakllarining birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasi asoslarini, hamda sog'lom turmush tarzining asoslari;

- inson salomatligi, ekologiya, ekopatologiyalar va boshqa patologiyalarning eng muhim shakllarini yuzaga kelishidagi atrof muhit omillarining tutgan o'rni **haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.**

- ekologiyaning tibbiyotga doir zamonaviy tomonlarini, muammolarini;

- odam organizmiga turli xildagi ijtimoiy-gigiyenik omillarning (ovqatlanish, mehnat, turmush, o'qish va tarbiyalash sharoitlari va b.) ta'siri bilan bog'liq holda ularning umumiy gigiyenik ta'riflari va sog'lomlashtirish tadbirlarining asoslarini;

- davolash-profilaktika muassasalariga bo'lgan gigiyenik talablarni

- inson ekologiyasining tibbiyotga doir zamonaviy tomonlarini, muammolarini;

- odam organizmiga turli xildagi ijtimoiy-gigiyenik omillarning (mehnat, turmush, o'qish va tarbiyalash sharoitlari va b.q.) ta'siri bilan bog'liq holda ularning umumiy gigiyenik ta'riflari va sog'lomlashtirish tadbirlarining asoslarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- ovqatlanishning adekvatligini baholash;

- kasalxona xonalarining mikroiklimni o'rganish va baholash;

- kasalxona xonalari havosining antropogen kimyoviy ifloslanganligini tekshirish va baholash (karbonat angidrid gazi misolida)

- kasalxona xonalarining tabiiy va sun'iy yoritilganlik holatini baholash;

- ichimlik suvining zararsizlantirish sifatini tekshirish va baholash;

- davolash-profilaktika muassasalarida davolovchi-himoyalovchi va sanitar va epidemiologik tadbirlarni ta'minlash uchun sharoitlarni baholash aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bo'yicha ishlarni o'tkazishni;

- bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini baholash (regressiya shkalasi, kompleks usuli, sentil shkalasi bo'yicha);

- kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar berishni;

davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xodimlarning va korxonalarda

ishlovchilarning salomatligini ta'minlovchi mehnat sharoitlarini tashkil qilish malakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.

4 VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

ma`ruzalar;
interfaol keys-stadilar;
tezkor savol-javoblar;
guruxlarda ishlash;
jamo bo`lib ishlash;
taqdimotlar tayyorlash;

5 VII. Kreditlarni olish uchun talablar.

Gigiyena, harbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya moduli bo'yicha nazorat turlari va nazorat mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- yakuniy nazorat (YaN)

Modul bo'yicha talabaning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

No	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv	100	6
2	Yakuniy nazorat (YN) (o'tilishi)	100	0
	JAMI	100	6

Modulga ajratilgan 6 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN) JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli

masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. JN kafedrada og'zaki so'rov va masofaviy ta'lim platformasida test shakllarida o'tkaziladi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o'qituvchi tomonidan talabaning JN og'zaki so'rov shaklidan olgan bali shu kunni o'zida platformaga qo'yiladi.

Joriy nazorat uchun 6 kredit ajratiladi:

Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni	5	a'lo

				<p>aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy</p>		
--	--	--	--	---	--	--

			<p>yutuqlarini qo'llay olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	<p>"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan</p>	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal</p>	4	yaxshi

				<p>qilishda undan umumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p>		
--	--	--	--	--	--	--

			<p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy</p>		

				<p>vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar</p>			
--	--	--	--	--	--	--	--

			<p>mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	<p>"qoni-qarli"</p> <p>- sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan</p>	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar</p>	3	Qoni qarli

			<p>bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l</p>		

				<p>qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p>		
--	--	--	--	--	--	--

			nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlash-tirishi zarur	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.	2	Qoniqarsiz
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;		

			<p>tirishi lozim</p> <p>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p>		
--	--	--	---	--	--

YAKUNIY NAZORAT (ON)

YN 4-semestr so'ngida bo'lib, o'tilgan mavzular asosida mahsus tuzilgan hayot ishtirokida ogzaki shaklida amalga oshiriladi, 100 balli tizimda baholanadi, o'tish bali 55 ball.

6

Asosiy adabiyotlar:

1. Salomova F.I., Iskandarova Sh.T., Abdukadirova L.K., Sadullaeva X.A., Sharipova S.A., Axmadaliyeva N.O., Xasanova M.I. "Gigiyena, xarbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya". Darslik. Toshkent. "O`ZKITOBSAVDO", 2020.
2. Ponomareva L.A., Kazakov E.K., Abduqodirova L.K., Tuhtarov B.E., Dravskix I.K., Sharipova S.A., Sadullayeva X.A. Umumiy gigiyena bilan ekologiya. Amaliy mashg'ulotlar uchun o`quv qo`llanma. - Toshkent. Tafakkur-bostoni. - 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Duschanov B.A., Iskandarova Sh.T. Umumiy gigiyena. Darslik. –Toshkent. Kitob-jurnal. 2008 y. 25
2. Dade W. Moeller. Environmental health. Third Edition Harvard University Press Cambridge, Massachusetts London, England, 2011.
3. Duschanov B., Yusupova O., Nuraliyeva S., Aminov U. “Radiatsion va harbiy gigiyena”. Darslik. – Toshkent., Yangi asr avlodi. - 2008.
4. Ponomareva L.A., Inogamova V.V., Salomova F.I. “Radiatsion gigiyena” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “O`ZKITOBSAVDO”, 2020.
5. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida Qonuni, T. 2015y.
6. Melnichenko P.I., Arxangelskiy V.I., Kozlova T.A. va b. “Gigiyena s osnovami ekologii cheloveka”, Uchebnik. Moskva. GEOTAR –Media. 2010 g.
7. Rumyansev G.I., Proxorov N.I., Novikov S.M. va b. “Gigiyena” Uchebnik dlya vuzov, Moskva. GEOTAR-Media. 2009 g.
8. Bolshakov A.M. “Obshaya gigiyena” Moskva. GEOTAR-Media. 2009 g.
9. Kicha D. I., Drojjina N. A., Fomina A. V. “Obshaya gigiyena rukovodstvo k laboratornim zanyatiyam”. Moskva. GEOTAR-Media, 2010.
10. O‘zR SSV., O‘zR SanQ va M – 2005 – 2019 yillar
11. Issues in environment, health, and pollution, USA 2011. I
12. Basic Principles in Occupational Hygiene October, 2010.
13. Selected topics on hygiene and human ecology Edited by Emilia Kolarzyk, 2002.
14. H. L. M. Lelieveld, M. A. Mostert and J. Holah. Hand book of hygiene control in the food industry Edited. 2005.
15. Water analysis hand book 4th Edition Revision 3, 2005.
16. Radiation Protection and Safety of Radiation Sources: International Basic Safety Standards INTERNATIONAL ATOMIC ENERGY AGENCY VIENNA, 2014.
17. Q.M.Yusupov, M.M.Mirzaeva “Gigiyena va ekologiya” o‘quv qo‘llanma 2022 yil.
18. S.S.Xolmirzaeva, M.X.Salieva, Q.M.Yusupov, M.M.Mirzaeva “Mehnat

	<p>gigiyenasi” O‘quv qo‘llanma-2020 yil.</p> <p>19.Q.M.Yusupov “Gigiyena.Tibbiy ekologiya” o‘quv qo‘llanma-2020 yil</p> <p>20.Usmanova G. K.” Atrof muhit omillari” o‘quv qo‘llanma Andijon – 2022 yil</p> <p>21. Umumiy gigiyena: tarbiya usuli. nafaqa. 2 v.p.da. 1-qism / I.I. Burak, N.I. Miklis. - Vitebsk: VSMU, 2017. - 323 v.</p> <p>22. Владимировский государственный университет, рабочая программа дисциплин общая гигиена и валеология. 05,03,06, «Экология и природопользования» РФ - 2022 г.</p> <p>5.3. Internet saytlari:</p> <p>www.minzdrav.uz;</p> <p>www.tma.uz</p> <p>www.Ziyonet;</p> <p>www.hygiene.uz;</p> <p>www.radiation.uz;</p> <p>https://www.iaea.org/(International Atomic Energy Agency)</p> <p>www.radiation-and-risk.com.</p> <p>www.uran.pro</p> <p>https://share.google/sN7cEctY2BRngB2LH</p> <p>1. https://univision.kz/edu-program/19984.html</p>
7	<p>Andijon davlat tibbiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va OTM Kengashining 2025 yil “ ___ ” _____dagi ___sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8	<p>Fan/modul uchun mas`ullar:</p> <p>G.K. Usmanova - Preventiv tibbiyot asoslari kafedrası katta o‘qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchi:</p> <p>S.M.Babich - Ijtimoiy gigiyena va SSB kafedrası mudiri, t.f.n. dotsent</p>